

TARJIMA TARIXI VA TARJIMONLIKNING AHAMIYATI

Omonova Zarina Farxodovna
O'zDJTU, Tarjimonlik fakulteti,
1-kurs talabasi
omonovaz980@gmail.com
Ilmiy rahbar: **Xodjayeva S.S.**

Annotatsiya: Maqolada tarjima tarixi, muammolari, tarjima maktablari, tarjimaning zamonaviy turlari va uning hozirgi kundagi rivoji hamda tarjima asarlarining ahamiyati haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: tarjima, tarixi, zamonaviy turlari, tarjima asarlar, maktablar, yosh tarjimon.

Аннотация: В статье представлены сведения об истории перевода, проблемах, школах перевода, современных видах перевода и его современном развитии, а также о значении переводных произведений.

Ключевые слова: перевод, история, современные виды, переводные произведения, школы, молодой переводчик.

Abstract: The article provides information on the history of translation, its problems, translation schools, modern types of translation and its current development, as well as the importance of translated works.

Keywords: translation, history, modern types, translated works, schools, young translator.

Hozirgi kunda dunyo bo'ylab tarjimaning ahamiyati kundan-kunga yuksalib bormoqda. Tashqi aloqalar rivojlangan har bir davlatda tarjimaga ehtiyoj sezilishi shubhasiz. Shuningdek, tarjima turli xalqlarni iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy jihatdan birlashtirishga hamda ular o'rtasidagi xalqaro aloqalarning yuksalishiga xizmat qiladi. Shuning uchun tarjimaga xalqlarni bir-biri bilan yaqinlashtiruvchi ko'prik sifatida qarashimiz mumkin. Tarjima insonlarning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va ma'rifiy hayotida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Tarjima jarayoni qadim zamonlardan boshlab turli xalqlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy aloqalarni o'rnatishda, millatlar o'rtasidagi adabiy aloqalarni rivojlantirishda mustahkam ko'prik vazifasini o'tagan. Qisqasini aytganda tarjima insoniyat tarixi taraqqiyotida asosiy o'rinlardan birini egallaydi. **Tarjima** – Vatan adabiyotini boyitish, o'zaro ma'naviy qadriyatlar, fikr-g'oyalar almashish vositasi, **tarjimon esa chinakam ijodkor adib** deb qaraladigan bo'ldi.

Tarjimaga ko'pgina olimlar turlicha ta'rif berishgan. Buyuk tarjimashunos olim Qurdat Musayev¹ tarjimaga quyidagicha ta'rif beradi: Insoniyat faoliyatining murakkab shakli bo'lmish tarjima - bir tilda yaratilgan nutqiy ifodani (matnni), uning shakl va mazmun birligini saqlagan holda, o'zga til vositalari asosida qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayondir. Demak, asliyat mansub bo'lgan til vositalari yordamida

¹ Musayev Q. Tarjima nazariyasi.- Toshkent; 2003.

yaratilgan nutqiy ifoda (matn) tarjima tili qonuniyatlari asosida vujudga kelgan shunday ifoda bilan almashtiriladi. Tarjima xalqlar o'rtasidagi do'stlik, qardoshlik va xamkorlik manfaatlariga, ular o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, ilmiy, madaniy va adabiy aloqalarning kengayishiga xizmat qiluvchi qudratli quroldir. Tarjima turli xalqlar adabiyotlarining o'zaro aloqasi va bir-biriga ta'siri jarayonini tezlashtiradi. Tarjimaviy asarlar tufayli kitobxonlar jaxon adabiyoti durdonalaridan baxramand bo'ladilar, ularning estetik tuyg'ulari oshadi, didlari o'sadi, ularda go'zal narsalar haqida tushunchalar xosil bo'ladi.

O'tgan XX asr jahon tarjimachiligi va tarjimashunosligi ravnaqida muhim o'rin tutdi. Xalqaro tarjimonlar federatsiyasining sobiq prezidentdi Per-Fransua ta'kidlaganidek: "XX asr tarjima asri" degan nomni oldi. Asrlar davomida ilm fanning jadal rivojlanishi davomida tarjimaga bo'lgan ehtiyoj kuchayib bordi.

Tarjima haqida ilk nazariy fikrlar dastlab Rimda paydo bo'lgan. Tarjima so'zi to XX asrga qadar tarixiy, falsafiy va adabiy asarlar o'girmasiga nisbatan qo'llanib kelingan. Og'zaki tarjimonga nisbatan Turkiyda "tilmoch", Slavyanlarda "tolmach", Ingliz va Fransuz tillarda "interpret" atamallari ishlatilgan. Tarjima nazariyasiga bag'ishlangan ilk tadqiqotlar o'tgan asrning 20- yillarida yuzaga kela boshladi. 1953-yili Xalqaro tarjimonlar uyushmasi tashkil etildi. Shu yillar davomida ko'plab olimlarning tarjima nazariyasi muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlari birin-ketin bosilib chiqa boshladi. 1959-yildan boshlab Ittifoq Yozuvchilar uyushmasi tashabbusi bilan tarjima mahorati almanaxi nashr etila boshlandi. Shu yillarga kelib tarjima nazariyasi O'zbekistonda ham alohida fan sifatida e'tirof etila boshlandi.

Bugunga kelib qator olimlar tarjima sohasi va undagi dolzarb muammolar haqida ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Shu bilan birga, bugungi kunda tarjima sohasiga oid bo'lgan risolalar, maqolalarda tarjimaning o'zni qanchalik ahamiyatga molikligi o'z aksini topgan. Jumladan, Ozod Sharafiddinov o'zining "Badiiy tarjimaning ba'zi prinsiplari" sarlavhali maqolasida o'sha davrda rus tilidan o'zbek tiliga qilingan tarjimalarni tanqid ostiga olgan bo'lsa, professor G'aybullay Salomovning "Tarjima san'ati" ilmiy almanaxida tarjima nazariyasi va amaliyotining dolzarb masalalariga oid qator maqolalar berilgan edi². 1960- yilda g'arb tarjimashunosligining e'tiborga molik fransuz tilshunosi Jorj Munen quyidagi fikrni ilgari suradi: Har bir asar o'z davrining ijtimoiy-madaniy hodisasi bo'lib, u faqat o'sha xalq tili orqali ifodalanadi, tilning ishtiroki va bevosita takomillashuvi evaziga yuzaga keladi. Shunday ekan ushbu asarni ikkinchi bir tilga o'girish ham faqat til vositalardagina amalga oshiriladi va lisoniy hodisaga aylanadi".

Bugungi kunga kelib tarjimashunoslik ilmi sohasida birmuncha yutuqlarga erishildi. Hozirgi davrda har bir taraqqiy etgan xalq jahondagi yuzlab xalqlar tilidan o'z ona tiliga ilmfan va madaniyatning o'nlab sohalariga oid materiallarni (lirik she'rlar, xabarlar, texnologiya adabiyoti va boshqalar) tarjima qiladi. Tarjima nusxa ko'chirish emas; tarjimonning estetik ehtiyoji uning ixtiyoridan tashqari, tarjimada iz qoldiradi.

² Xolbekov M.N. Tarjimashunoslik va tarjima tanqidi Toshkent-2014.

Yozuvchi hayot voqealaridan olgan mushohadalarini tilda badiiy ifodalasa, tarjimon asl matnini yangi til vositasida qayta gavdalandiradi. Buning uchun u asarda tilga olingan voqelikning muallif darajasida puxta bilishi kerak. Har bir xalq adabiyotining rivojlanishida tarjimachilikning ta'siri katta bo'ladi, zero tarjima tarixi adabiyot tarixi bilan tengdosh. O'zbek adabiyotida ham tarjimachilik qadimdan rivojlangan. Mahmud Koshg'ariy, Rabg'uziy, Qutb, Navoiy, Bobur, Munis, Ogahiy va boshqa ijodida tarjima katta o'rin egallaydi.

Hozirda tarjimashunoslikda tarjimaning quyidagi *turlari* keng tarqalgan:

- 1). ketma-ket
- 2). vizual
- 3). sinxron

Ketma-ket tarjima bu- axborotning barcha mazmunini yodda saqlagan holda so'zlovchining nutqini tinglagandan so'ng tarjima qilishdir.

Vizual tarjima bir tilda yozilgan matnni boshqa tilga tarjima qilib o'qishga aytiladi. Tarjima qilish uchun ajratilgan joyda matnni ko'rib tarjima qilish, yozma matnni o'qish kabi emas, balki og'zaki nutq singari eshutilishi kerak.

Sinxron tarjima tarjimondan juda katta bilim, madaniyat, zakovat va fikrni tez ilg'ab uni ravshan ifodalaydigan so'z topishni talab qiladi. Bunday notiq jumllarning ma'nosini bir zumda darhol boshqa tilga qaytarish talab etiladi. Sinxron tarjimaga talab juda katta va uning ma'uliyati ham shu darajadadir.

Shu o'rinda tarjimon va tarjimashunos so'zlariga ta'rif berib o'tsak. "Tarjima" arab tilidan olingan bo'lib, "bir tildan ikkinchi tilga ag'darish, o'girish, izohlash, sharxlash" degan ma'nolarni bildirib, bir tildagi matnni boshqa tilda qaytadan yaratishdan iborat adabiy ijod turidir. "Tarjimon" – tarjima qiluvchi shaxs. "Tarjimashunos" – tarjima nazariyasini, uning qonun qoidalarini o'rganuvchi mutaxassis, olim.³

XX asrning 40-90-yillarida O'zbekistonda tarjimashunoslarining katta guruhi samarali faoliyat olib bordilar. G'aybullay Salomov asos solgan tarjima maktabi yuzaga keldi. Tadqiqotchilar sifatida izlanishlar olib borgan olimlar ichida I. Abdullayev, N. Vladimirova, G. G'afurova, N. Komilov, H. Musayev, Y.U. Pulatov, M. Rasuliy, V. Rahmonov, S. Salomova, Z. Umarbekova, H. Homidov kabi olimlar tarjima sohasiga katta hissa qo'shdilar.

O'zbekistonning mustaqil taraqqiy etishi, boshqa davlatlar bilan xalqaro aloqalarning mustahkamlanishi, mamlakatimizning jahon hamjamiyati tomonidan yuksak e'tirof etilishida tarjimaning o'rni beqiyosdir. Bugungi kunga kelib O'zbekistonda 30-sentabr- Xalqaro tarjimonlar kuni sifatida keng miqyosda nishonlanadi. Yosh tarjimonlar orasida Mirzohid Muzaffar, Rahmat Bobojon, Gulsanam Roziyeva, Orifa G'ulomova kabi yuksak iqtidor egalari tarjima sohasida samarali ishlar olib bormoqda. Shunday ekan, tarjima sohasiga bog'liq bo'lgan har bir shaxs, avvalo, o'z tilining madaniyatlarini bilishi va chet tillarda ulkan muvaffaqiyatlar

³ G'afurov I. Tarjimashunoslik mutaxassisligiga kirish. T., 2008. 232 b.

qozonishga harakat qilishi kerak. Quvonarli tomoni shundaki, oliy o'quv yurtlarida tarjima nazariyasi va amaliyotini o'qitish birmuncha jonlandi. I. G'afurov, A. Abduazizov, Q. Musayev, O. Mo'minov, N. Qambarov, Sh. Sirojiddinov kabi taniqli tarjimon va tarjimashunos olimlarimizning sa'y-harakati tufayli tarjima nazariyasi va amaliyotiga oid darslik hamda o'quv qo'llanmalari chop etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Begmatov E., Madvaliyev A., Mahkamov N. va boshqalar... O'zbek tilining izohli lug'ati. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/
2. Musayev Q. Tarjima nazariyasi.- Toshkent; 2003.
3. Salomov G'. "Tarjima nazariyasi asoslari" - T.: «O'qituvchi», 1983.
4. Xolbekov M.N. Tarjimashunoslik va tarjima tanqidi Toshkent-2014.
5. G'afurov I. Tarjimashunoslik mutaxassisligiga kirish. T., 2008. 232 b.
6. <https://zenodo.org/records/7818231>
7. <https://reyting.cspu.uz/storage/upload/files/18356713035184895.pdf>